

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining assistenti F.D.Ibragimovning “Veterinariya profilaktikasi va davolash” fakulteti 60840100-Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalariga “Hayvonlar patofiziologiyasi” fanidan “Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi” mavzusidagi ochiq amaliy mashg‘ulotiga

T A Q R I Z

“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining assistenti F.D.Ibragimovning “Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi” mavzusidagi ochiq amaliy mashg‘ulot darsining uslubiy ko‘rsatmasida ushbu muammoning dolzarbligi, uni o‘rganish veterinariya amaliyotidagi ahamiyati to‘lato‘kis yoritilgan. Mavzuda mavzuga oid atamalar, ularni izohlari tushuncha holatida berilgan. Amaliy mashg‘ulotda qo‘llaniladigan jihozlar va laboratoriya hayvonlar sanab o‘tilgan. Bundan tashqari amaliy mashg‘ulotning asosiy qismi to‘liq yoritilgan.

Amaliy mashg‘ulotning taqdimotida “Hayvonlar patofiziologiyasi” fanidan “Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi” mavzusi batafsil yoritilgan bo‘lib, Yallig‘lanishning sabablari, bosqichlari, yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari, oqibati va ahamiyati haqida tushunchaga ega bo‘lish; bundan tashqari yallig‘lanishda qon tomirlar reaksiyasini o‘rganish. Shuningdek, bir necha amaliy ishlar bilan mavzu mustahkamlangan. Dars pirovardida amaliy mashg‘ulot bo‘yicha ishlanma talabani fikrlash qobiliyatini oshiruvchi va shular asosida slaydlar orqali mavzu aniq izohlangan, nazorat savollari va aqliy hujum savollari bilan boyitilgan.

Amaliy mashg‘ulot taqdimotida internet ma’lumotlaridan foydalanilgan bo‘lib, slaydlarda kiritilgan rangli rasmlar mavzuni talabalar tomonidan chuqurroq o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Assistent F.D.Ibragimovning “Hayvonlar patofiziologiyasi” fanidan “Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi” mavzusidagi amaliy mashg‘uloti matni va slaydlari hozirgi zamon innovatsion ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb o‘ylayman va uni o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining mudiri, dotsenti:
D.Eshimov**

“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining assistenti F.D.Ibragimovaning “Veterinariya profilaktikasi va davolash” fakulteti 60840100-Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalariga “Hayvonlar patofiziologiyasi” fanidan “Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi” mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg‘ulotiga

T A Q R I Z

Amaliy mashg‘ulot mavzusi fan dasturi va ishchi o‘quv dasturiga to‘liq mos keladi. Amaliy mashg‘ulot, matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdimot qilingan. Dastlab amaliy mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, amaliy mashg‘ulotini o‘qitishning pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan. Amaliy mashg‘ulotining texnologik xaritasida esa, o‘quv mashg‘ulotining vaqti ko‘rsatilgan.

Agar mavzuda belgilangan reja ketma-ketligiga rioya qilinib, ko‘rgazmali qurollardan o‘z vaqtida foydalanib, tayanch iboralarga izoh berib, amaliy mashg‘ulotda talabalar bilan muloqotda bo‘lib, mavzu yuzasidan fikrlar so‘ralib, o‘tilsa, maqsadga erishiladi. Mavzuning oxirida nazorat savollari va nostandart testlardan ham foydalanilgan.

Mavzuning shakli va mazmuni uslubiy to‘g‘ri yozilgan shuning uchun assistent F.D.Ibragimova tomonidan tayyorlangan “Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi” mavzusini o‘quv jarayonida joriy qilishni tavsiya qilaman.

Samarqand Davlat tibbiyot Universiteti
“Patologik fiziologiya”

kafedrası dotsenti, t.f.n.

D.S.Haydarova

.